

## I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 2 699 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 350 ta yoki 114,9 foizga ko'paygan.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 448 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ularning 31,3 foizi Navoiy shahri, 20,5 foizi Karmana tumani, 8,3 foizi Navbahor tumani va G'ozg'on shahri, 7,8 foizi Nurota tumani, 7,6 foizi Xatirchi tumani hissalariga to'g'ri keldi.




### 2026- yil 1- yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2025- yil yanvar- dekabr oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
<b>Jami</b>	<b>2 699</b>	<b>40</b>	<b>2 659</b>	<b>448</b>
Navoiy sh.	685	20	665	140
Zarafshon sh.	217	2	215	21
G'ozg'on sh.	235	-	235	37
Konimex t.	68	2	66	10
Qiziltepa t.	247	1	246	24
Navbahor t.	193	4	189	37
Karmana t.	495	4	491	92
Nurota t.	202	2	200	35
Tomdi t.	51	2	49	7
Uchquduq t.	95	1	94	11
Xatirchi t.	211	2	209	34


## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2026- yil 1- yanvar holatiga)



## Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2025- yil yanvar-dekabr)



*Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste’moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi.*

2025-yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 195 226,4 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati) 108,3 foizni tashkil etdi.

Jumladan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 2025-yil yanvar- dekabr oylarida 23 641,4 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati) 115,4 foizni, qayta ishlash sanoati 163 109,8 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati) 107,4 foizni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 8 070,9 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati) 101,9 foizni, suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 404,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati) 193,8 % foizni tashkil etdi.




### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati, % da)</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>195 226,4</b>	<b>108,3</b>
<b>Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>23 641,4</b>	<b>115,4</b>
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	22 209,2	114,8
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	1 432,2	131,3
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>163 109,8</b>	<b>107,4</b>
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	7 897,7	113,5
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4 499,4	97,8
Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohlol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	415,0	134,5

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)</i>
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	63,1	167,5
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,3	217,2
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	9 976,0	120,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	-	0,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	3 592,0	97,7
Metallurgiya sanoati	131 668,4	106,7
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1 561,4	126,9
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	230,9	98,8
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	698,9	145,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	1 753,7	168,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	362,5	69,2
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	19,8	-
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	15,3	2,5 m.
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	353,4	114,0
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>4 980,6</b>	<b>125,3</b>
<b>Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>404,3</b>	<b>193,8</b>

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 163 109,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida - 93,8 foizga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 15,4 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 7,4 foizga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda - 101,9 foizni tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23 641,4 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,1 % ga to‘g‘ri keldi.


### Ishlab chiqaradigan sanoat

*Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma‘lum turi uchun birdan - bir to‘liq me‘zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi.*



2025- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163 109,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 7,5 % (7,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 84,4 % (83,7 %), quyi texnologiyali 7,9 % (8,2 %)ni tashkil etgan.





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish *(yirik korxonalar bo'yicha)*

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025- yil yanvar-dekabr</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>			
Chaqiq tosh	<i>tn.</i>	271 602,3	2,3 m.
<b>Qayta ishlash sanoati</b>			
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	107,7	112,7
Yogurt	<i>tn..</i>	31,3	134,5
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar	<i>ming dona.</i>	2 436,8	102,2
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	<i>ming dona.</i>	211,1	68,6
Argon	<i>ming.m<sup>3</sup></i>	1 917,8	158,4
Azot	<i>ming.m<sup>3</sup></i>	489,4	2,5 m.
Kislород	<i>ming.m<sup>3</sup></i>	841,2	148,1
Uglerod dioksidi	<i>tn</i>	30 810,6	2,9 m.
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar	<i>ming. tn.</i>	641,6	112,4
Natriy sianidlari va sianidoksidlari	<i>ming. tn.</i>	68,3	126,3
Suvsiz ammiak	<i>ming. tn.</i>	783,3	104,3
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	14 089,1	112,5
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak	<i>tn.</i>	336 976,5	98,6
Xlor	<i>tn.</i>	2 626,0	129,2
Portlandsement	<i>ming tn.</i>	2 094,0	85,4
Mochevina (karbamid)	<i>ming tn azot.</i>	270,6	101

## **Argon ishlab chiqarish**

(2025- yil yanvar- dekabr oylarida)



*Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.*

Viloyatimizda 2025- yil yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 917,8 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,4 foizga ko'paydi.

## **Kislorod ishlab chiqarish**

(2025- yil yanvar-dekabr oylarida)



*Kislorod – rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz. Kislorod eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.*

2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami 841,2 ming m<sup>3</sup> kislorod ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,1 foizga ko'paydi.

## **Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish**

(2025- yil yanvar-dekabr oylarida)



*Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.*

2025- yil yanvar-dekabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 14 089,1 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ni tashkil etdi.

## Metallurgiya sanoati



*Metallurgiya sanoati* – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 80,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 131 668,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish* – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,6 % oshdi va ishlab chiqarish hajmi 9 447,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



*To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish* – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,5 foizni tashkil etib, ishlab chiqarish hajmi 2 316,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 070,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
	10 669,7	10 782,7	8 706,4
	4 542,3	4 589,0	4 296,0

## Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.*

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 404,3 mlrd. so‘mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % iga) to‘g‘ri keldi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Quvurlar orqali suv sotish bo‘yicha xizmatlar, mlrd so‘m	53,9	131,5	309,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd so‘m		116,1	88,1
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd so‘m	63,8	37,3	22,9



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 225 ta loyiha bo'yicha 10 457,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 116,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 1 429 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.





**2025- yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha  
hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm *</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da</i>	
<b>Jami</b>	<b>195 226,4</b>	<b>108,3</b>	<b>9,5</b>
Navoiy sh.	166 715,4	107,1	2,0
Zarafshon sh.	1 067,9	110,1	95,7
G'ozg'on sh.	275,9	112,4	100,0
Karmana t.	13 580,5	103,2	28,4
Konimex t.	972,1	107,5	46,0
Qiziltepa t.	2 030,8	110,8	98,1
Navbahor t.	1 401,6	106,7	54,1
Nurota t.	650,9	109,7	90,5
Tomdi t.	99,7	107,2	96,9
Uchquduq t.	701,3	106,8	99,2
Xatirchi t.	1 854,8	86,8	60,3


G'ozg'on shahrida (o'tgan yilning mos davriga nisbatan (112,4 %), Qiziltepa tumanida (110,8 %) hamda Zarafshon shahrida (110,1 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida (o'sish sur'ati) yuqori o'sish suratlari kuzatildi.



## 2025- yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat

	Sanoat mahsulotlari, ming so'm	
	2024	2025
<b>Jami</b>	<b>134 208,9</b>	<b>176 947,5</b>
Navoiy sh.	745 840,0	987 106,5
Zarafshon sh.	9 785,3	11 702,0
G'ozg'on sh.	24 645,2	29 336,5
Karmana t.	84 085,4	94 799,3
Konimex t.	21 025,3	26 254,5
Qiziltepa t.	9 406,0	12 243,7
Navbahor t.	10 936,5	11 358,9
Nurota t.	5 765,0	7 125,4
Tomdi t.	5 442,4	6 542,5
Uchquduq t.	13 312,2	17 624,9
Xatirchi t.	9 618,3	8 514,8

### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so'm



2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Navoiy shahriga (987 106,5 ming so‘m), Karmana tumaniga (94 799,3 ming so‘m), G‘ozg‘on tumaniga (29 336,5 ming so‘m), Konimex tumaniga (26 254,5 ming so‘m), Uchquduq tumaniga (17 624,9 ming so‘m) va Qiziltepa tumaniga (12 243,7 ming so‘m) to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 878,5 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Joriy yilda qo‘shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,6 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati), % da	mlrd. so‘m	Ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>195 226,4</b>	<b>108,3</b>	<b>6 878,5</b>	<b>3,6</b>
Navoiy sh.	166 715,4	107,1	4 602,0	2,8
Zarafshon sh.	1 067,9	110,1	106,3	10,0
G‘ozg‘on sh.	275,9	112,4	31,3	11,3
Karmana t.	13 580,5	103,2	954,3	7,0
Konimex t.	972,1	107,5	59,6	6,1
Qiziltepa t.	2 030,8	110,8	193,6	9,5
Navbahor t.	1 401,6	106,7	140,9	10,1
Nurota t.	650,9	109,7	63,9	9,8
Tomdi t.	99,7	107,2	4,0	4,0
Uchquduq t.	701,3	106,8	0,4	0,1
Xatirchi t.	1 854,8	86,8	722,2	38,9

## Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da


2024- yil yanvar-dekabr

2025- yil yanvar-dekabr



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar


## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18 559,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,5 foizni tashkil etdi.

## Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



## 2025- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush G‘ozg‘on shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,2 %), Qiziltepa tumani (98,1) Tomdi tumani (96,9 %), Zarafshon shahri (95,7 %), Nurota (90,5 %), Xatirchi (60,3 %), Navbahor (54,1 %), Konimex (46,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Karmana tumaniga (28,4 %) hamda Navoiy shahriga (2,0 %) to‘g‘ri keldi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** - korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri** - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** - boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

**Mahalliyashtirish darajasi** - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

**Mahsulot sotish hajmi** - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).